

MADANIY TURIZMNING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ruziyev Shohrubbek Ravshan o'g'li

Alfraganus universiteti Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy turizmning mazmun-mohiyati, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari haqida so'z yuritiladi. Madaniy turizmning ahamiyati tarixiy merosni asrash, milliy qadriyatlarni targ'ib etish, shuningdek, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish omillari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: madaniy turizm, meros, qadriyat, tarixiy obidalar, milliy madaniyat, turizm infratuzilmasi, sayyohlik, ziyorat turizmi, etnografik turizm.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность культурного туризма, его роль в национальной экономике, влияние на развитие общества и перспективы развития этой отрасли в Узбекистане. Анализируется значение культурного туризма с точки зрения сохранения исторического наследия, пропаганды национальных ценностей, а также содействия экономическому росту.

Ключевые слова: культурный туризм, наследие, ценность, исторические памятники, национальная культура, туристическая инфраструктура, туризм, паломнический туризм, этнографический туризм.

Abstract. This article discusses the essence of cultural tourism, its role in the national economy, its impact on the development of society, and the prospects for the development of this sector in Uzbekistan. The importance of cultural tourism is analyzed from the point of view of preserving historical heritage, promoting national values, as well as contributing to economic growth.


Keywords: cultural tourism, heritage, value, historical monuments, national culture, tourism infrastructure, tourism, pilgrimage tourism, ethnographic tourism.

Bugungi globallashuv davrida turizm dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, madaniy turizm zamonaviy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Madaniy turizm insonlarning o'zga xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlarini, san'ati, tarixi va hayot tarziga qiziqishidan kelib

chiqadi. Shu bois u nafaqat hordiq chiqarish, balki ma'naviy boyish, dunyoqarashni kengaytirish vositasi sifatida ham alohida e'tirof etiladi.

O'zbekiston boy tarixiy meros, yuksak madaniyat va qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarimiz dunyo ahliga yaxshi tanish bo'lib, ularning tarixiy obidalarini YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan[1].

Madaniy turizm deganda, turistlarning madaniy meros obyektlari, tarixiy joylar, san'at asarlari, muzeylar, teatrlar, xalq urf-odatlarini, milliy festivallarni va madaniy tadbirlarga qiziqish asosida sayohat qilishi tushuniladi. U asosan quyidagi turlarga bo'linadi:



1-rasm. Madaniy turizm turlari [2].

Madaniy turizmning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda katta. U xizmatlar sohasining rivojlanishiga turtki bo'lib, mehmonxona, transport, ovqatlanish, hunarmandchilik va boshqa yo'nalishlarda yangi ish o'rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, u milliy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotidagi turizm ulushini oshiradi.

O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish uchun so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida turizm milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Ziyorat turizmi", "Ipak yo'li turizmi" kabi loyihalar orqali xorijiy sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda [3]. Shuningdek, "Turizm haftaliklari", xalqaro festivallarni, madaniy marafonlarni hamda mintaqaviy ko'rgazmalar orqali mamlakatimiz madaniy salohiyati

targ'ib qilinmoqda. Madaniy turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. U xalqaro madaniy almashinuvni kuchaytiradi, turli xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mahalliy aholining o'z tarixiga, milliy qadriyatlariga bo'lgan hurmatini oshiradi, yoshlar orasida madaniy ongni shakllantiradi.

Biroq madaniy turizmni rivojlantirishda muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, ayrim tarixiy yodgorliklar va madaniy obyektlarning infratuzilmasi yetarli darajada ta'mirlanmagan, axborot xizmatlari va gidlar tizimi rivojlanmagan. Shuningdek, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy tillarni biladigan mutaxassislarini ko'paytirish zarur. Shu sababli davlat va xususiy sektor hamkorligida kompleks dasturlar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Madaniy turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ❖ Madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va 3D formatda targ'ib etish;
- ❖ Turizm infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida yangilash;
- ❖ Mahalliy aholining turizm loyihalarida faol ishtirokini ta'minlash;
- ❖ Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- ❖ Madaniy festivallar va xalq amaliy san'ati yarmarkalarini ko'paytirish.

Xulosa qilib aytganda, madaniy turizm – bu faqat sayohat emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglash va uni dunyoga tanitish vositasidir. U mamlakatning xalqaro imijini oshiradi, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi va madaniy merosni asrashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy salohiyati, qadimiy shaharlar va milliy qadriyatlar madaniy turizmni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Kelajakda bu soha mamlakat iqtisodiyotining barqaror tarmoqlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [1]https://uz.wikipedia.org/wiki/UNESCOning_O'zbekistondagi_Butunjahon_merosi_ro'yxati
2. [2]“O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy- iqtisodiy jihatlarini”- B.Erkayeva(2021) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
3. [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.
4. Internet manbalari: www.madaniyturizm.uz, www.uzbektourism.uz